

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA TALABALARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH USULLARI

I. Po'latova ¹

Annotatsiya:

Mazkur maqolada talabalarning motivatsiyasini oshirish masalalari, motivatsiyaning mazmun-mohiyati nima ekanligi ochib berilgan bo'lib, bundan tashqari chet tillarni o'qitishda qaysi o'sullar ko'proq talabalarga motivatsiyasi berish masalari ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, "ichki kuch", Pedagog xulqi, Maishiy muhit, ijtimoiy interaksional, Muvaffaqiyat, to'g'ri baho.

doi: <https://doi.org/10.2024/bjcty283>

Xorijiy tilni o'rganish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar turli tuman bo'lib, bunda motivatsiyaning o'rni beqiyos hisoblanadi. Motivatsiya deganda, harakat qilishga undaygan sabablar tushuniladi. Ular shaxsiy ehtiyojlarga bog'liq bo'ladi.

Mazkur ehtiyojlarning qondirilmaligi keskinlik holatiga olib keladi va u tezkor yechimni talab qiladi. Motivatsiya til o'rganish uchun asosiy shart-sharoit hisoblanadi. Chunki o'qish jarayonida o'rganishga nisbatan qarama-qarshiliklar kelib chiqadi. O'rganish xulqning nisbiy davomiy o'zgarishi deb ta'riflanadi.

O'rganish individumga bog'liq bo'lgan jarayondir. U shaxsiy motivatsiya va shaxsiy manfaat orqali amalga oshadi. Har xil odamlar o'rganish jarayonini turli o'quv bosqichlar, stimuly va o'rganish muhiti orqali o'zlashtiradilar. Intellektual ong va til o'rganishga bo'lgan qobiliyatning roli katta bo'lsada (Gardner va Lambert, 1972-2008), motivatsiya bu tilni o'rganishda muvaffaqiyatga erishishning kaliti hisoblanadi. Harmer (1991, 3 b.) motivatsiyaning ma'nosi bu "ichki kuch" bo'lib, u insonni biror ish qilishga da'vat qiladi, deb ta'kidlaydi.

Agar biz biror narsani qilish to'g'ri deb o'ylasak va unga qiziqsak, biz unga erishishga, albatta, harakat qilamiz, bu esa "motivatsiyaga erishish kuchi" deyiladi. Odatda, motivatsiyaning ichki va tashqi turlari ajratiladi. Agar biror shaxs ma'lum muammoni "o'z mayliga" ko'ra darrov yechishga harakat qilsa, bunda "ichki (birlamchi) motivatsiya", ya'ni ichki motivatsiya to'g'risida gap boradi.

U o'z-o'zini ruhlantirish holatiga, faoliyatga, ruhiy kuchiga, hayotiy energiyasiga taalluqlidir. Ushbu motivatsiya biror shaxsning o'rganish predmetiga nisbatan ma'lum manfaati yuzaga kelganda namoyon bo'ladi. Salbiy oqibatlarini bartaraf etish, jamiyatda obro'-e'tiborga ega bo'lish, ko'p pul ishlab topish, diplom, sertifikat olish kabi muayyan maqsadlarga erishish uchun o'rganish "tashqi (ikkilamchi) motivatsiya" hisoblanadi. U tan olinish, ijobiy o'zgarishlar va haq to'lashning muayyan mexanizmlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Ko'pincha, tashqi motivatsiya ichki motivatsiyaga aylanib ketishi mumkin.

¹ Po'latova Iroda Obidovna, Samarqand davlat chet tillar instituti 1-bosqich magistranti

Xorijiy til o'rganish motivlari haqida to'xtalganda quyidagi ikki omilni inobatga olish zarur. Ijobiy va salbiy kuchayish, shuningdek muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik to'g'risida xabardor bo'lish tabiiy shart-sharoitlarga borib taqalmaydi. Bu vazifa ko'proq xorijiy til o'qituvchisiga taalluqli bo'lgan vaziyatlarda qo'llaniladi. Rad etish, xuddi shu hol bilan umumiy o'rganish to'siqlari noma'qul bo'lgan ijtimoiy interaksiyalar jarayonlari paytida "o'zlashtiriladi".

Ular istalgan va rag'batlantiruvchi o'rganish shart-sharoitlariga duch kelib qolishsa, yana qaytadan o'chirilib yuborilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, amaliyot o'qituvchisi o'ziga xos o'quv uslubi orqali, shuningdek, u va talabalar o'rtasidagi ijtimoiy interaksiyalar holatiga moslashuvi orqali talabalar motivatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy til o'qituvchisi bunga ko'ra:

- ijobiy o'rganish munosabatini kuchaytirib beradigan namunaviy munosabatni qabul qilishi;

- maxsus shaxsiy motivatsiya texnikalarini qo'llash;

- ijtimoiy interaksiyaning umumiy uslubidan foydalanishi lozim.

Talabalarining bir qismida o'qishga bo'lgan kuchli mayl borligi va boshqa talabalarlarda esa yo'qligini qanday tushuntirib berish mumkin? "Kuchayish" tushunchasi bunda muhim rol o'ynaydi, chunki agar talaba o'rganish borasida ijobiy natijaga erishib, ularni pedagog obro'si bilan bog'lamoqchi bo'lsa, u mazkur o'rganish borasidagi muvaffaqiyatlarni yanada yaxshilashga urinib ko'radi va ushbu mos keluvchi sa'y-harakatlarni o'zi xohlagan holda yana amalga oshiradi. Shu yo'sinda muvaffaqiyatli o'rganish, o'rganish borasidagi yakuniy ishonch va irodani mustahkamlanishiga olib boradi. Agar ushbu iroda "kuchayish" jarayonida muttasil vaqt mobaynida amalga oshsa, u holda o'quvchi barqaror o'rganish munosabatini rivojlantiradi va o'z muvaffaqiyatlarining uzoq vaqt davomida qo'lga kiritilganligiga asoslanib turg'un motivatsiyani ko'rsatib beradi.

Tadqiqotlar insonlarning tinch, ijtimoiy tan olinish darajasidagi atmosferada yaxshiroq va yengilroq o'rganishlari mumkinligini ko'rsatdi. Nafaqat ijobiy emotsional va ijtimoiy muhit, balki do'stlar davrasi, tozalik, maqsadga muvofiq tarzda jihozlanganligi, faol bo'la olish imkoniyatlarining borligi shular jumlasiga kiradi.

Mutaxassislar o'nlab o'rganishga ishtiyoqni oshirish usullarini taklif etadi. Ulardan ba'zilari quyidagilar:

1. Pedagog xulqi orqali motivlashtirish-pedagog ibрати, uning rahbarlik uslubi, shuningdek, uning o'quv predmetiga bo'lgan qarashi ta'sirchan o'quv motivlarini vujudga keltirishi mumkin. Instruktor o'z xulqi bilan o'quvchiga ijobiy xulqni o'zlashtirishga turtki berishi va uning hafsalasi pir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak.
2. Yaxshi natijalarni maqtash-erishilgan natijalarga mos maqtov va tan olish so'zlarini aytish o'quvchining qiziqishini o'yg'otishda ijobiy ta'sirga ega. Ular o'z qadrini his qilishlari, o'z kuchlariga ishonishlari va o'zlariga qo'yilgan talab darajalarini yuksaltiradi.

3. Ijtimoiy aloqadorlik orqali motivlashtirish-talaba uning yaxshi natijalarini tan olinishini talab etadi, chunki u uning guruhdagi o'rniga ta'sir ko'rsatadi. Raqobat guruhda o'zini ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Lekin raqobat, rashk va agressiya holatlariga yo'l qo'ymaslik lozim.

Harmerning fikricha, Talabaning motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi to'rtta xavfli omillar mavjud (1991, 4 b.):

1. Maishiy muhit – bu auditoriyadagi muhitni bildiradi. Masalan, agar talaba qorong'u auditoriyada o'qisa, juda gavjum bo'lsa, kichkina doskaga qarashga majbur bo'lsa, yoki auditoriyadan yomon hid kelayotgan bo'lsa, u o'rganishga bo'lgan ishtiyoq susayadi.

2. O'qitish metodi – bu talabalarining qaysi yo'l orqali o'qitilayotganligining motivatsiyaga ta'siriga taalluqlidir. Qachonki o'quvchilar o'qituvchining o'qitish metodidan

zeriksa, ularning motivatsiyalari asta-sekinlik bilan pasayadi. Harmerning aytishicha, "Agar o'quvchi metodga bo'lgan ishonchini yo'qotsa, unda motivatsiya susayadi" (Harmer, 1991, 5 b.)

3. O'qituvchi shaxsi va pedagogik muloqot -o'qitish va o'rgatish jarayonida o'ta muhim bo'lib, u talabaga ham motivatsiya berishi yoki aksincha uni ishtiyoqini pasaytirishi ham mumkin hisoblanadi.

4. Muvaffaqiyat- bu o'qituvchining dars berishda to'g'ri yondashganligiga bog'liqdir. Bajarilayotgan ish va mashg'ulot qiyin, murakkabligi juda yuqori yoki juda past bo'lsa, bu o'quvchini ishtiyoqsizlantirishi mumkin.

Harmerning aytishicha, agar mashg'ulotning qiyinchilik darajasi o'ta baland yoki o'ta past bo'lsa, bu o'quvchiga yomon ta'sir o'tkazishi mumkin.

Krashenning ta'sirli filter gipotezasi (Laytbaun va Spada ishida ta'kidlanishicha, 1999, 39 b.), emotsional holatlar ya'ni, charchoq, tushkunlik, zerikish kabilar o'quvchining o'rganish jarayoniga to'sqinlik qilishini ta'kidlaydi.

Xavotir meyorida bo'lsa foydali muhim omilga aylanadi. Xorijiy tilni o'rganishda pastroq xavotir kamroq bo'lsada, yordam berishi mumkin (Krashen, J.Oller va J.Richards, 2003, 183 b.).

Xorijiy til o'rganuvchilar motivatsiyasiga talaba va o'qituvchining o'zaro munosabati va kirishimchanligi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi talabaga xorijiy tilni o'rganishda ishtiyoqi va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam bersa va rag'batlantirish, ijobiy baho yoki maqtab qo'yish ham past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni o'rganishga chorlashi mumkin. Aksincha, ko'proq uyga vazifa berish, jazolash va boshqa shunga o'xshagan ta'sirlar nafaqat samarasiz, balki ular aks ta'sir o'tkazishi mumkin. Talabalarning o'zlashtirishlari haqida to'g'ri baho bera olish va buni ularga samarali yetkazish o'rganishning keyingi jabhalarida ham muvaffaqiyatga erishishlariga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Gardner, R.C. (1985). *Social Psychology and Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation*. London: Edward Arnold.

[2]. Gardner, R. (2010). *Motivation and Second Language Acquisition: The Socio-Educational Model*. UK: Peter Lang.

[3]. Gardner, R.C. & Lambert, W.E. (1972). *Attitudes and motivation in second-language learning*. Rowley, Mass: Newbury House. www.sciedu.ca/ijhe International Journal of Higher Education Vol. 2, No. 4; 2013 Published by Sciedu Press 130 ISSN 1927-6044 E-ISSN 1927-6052

[4]. Graham, S. (1997). *Effective Language Learning: Positive Strategies for Advanced Level Language Learning*. New York: Multilingual Matters.